



THE FORMATION OF THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN: A HISTORICAL AND SCIENTIFIC ANALYSIS

Sevara Alikulovna Elmurodova

Lecturer, Department of History of Uzbekistan,
Uzbek State University of World Languages
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17863780>

ARTICLE INFO

Received: 02nd December 2025

Accepted: 08th December 2025

Online: 09th December 2025

KEYWORDS

Soviet era, preschool education, historical analysis, kindergarten, Turkestan ASSR, Uzbek SSR, educational policy, first preschool institutions, post-war reconstruction, pedagogical methods, preschool education programs, institutional system, teacher training, 1930s–1950s, 1960s–1990s.

ABSTRACT

This scientific article presents a historical and scientific analysis of the stages of formation and development of the preschool education system in Uzbekistan in the 1920s–1990s. The article examines the educational policy of the Soviet government, the creation of the first kindergartens, the influence of economic and social factors in the 1930s–1950s, the processes of post-war recovery and the transformation of preschool education into an institutional system in the 1960s–1990s. Based on historical sources, the pedagogical approaches, educational programs, teaching aids, the system of training teaching staff, and the expansion of the network of preschool institutions characteristic of that era are analyzed. The article examines, on a scientific basis, the influence of the Soviet period policy on the development of preschool education in Uzbekistan, revealing the factors that laid the foundation for the development of this system in subsequent periods.

СТАНОВЛЕНИЕ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ: ИСТОРИКО-НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ

Севара Аликуловна Элмуродова

Преподаватель кафедры истории Узбекистана
Узбекского государственного университета мировых языков
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17863780>

ARTICLE INFO

Received: 02nd December 2025

Accepted: 08th December 2025

Online: 09th December 2025

ABSTRACT

В данной научной статье представлен историко-научный анализ этапов становления и развития системы дошкольного образования в Узбекистане в 1920–1990-е годы. В статье рассматриваются образовательная политика советского правительства, создание первых детских садов, влияние экономических и



KEYWORDS

Советская эпоха, дошкольное образование, исторический анализ, детский сад, Туркестанская АССР, Узбекская ССР, образовательная политика, первые дошкольные учреждения, послевоенное восстановление, педагогическая методика, программы дошкольного образования, институциональная система, подготовка воспитателей, 1930–1950-е гг., 1960–1990-е гг.

социальных факторов в 1930–1950-е годы, процессы послевоенного восстановления и трансформация дошкольного образования в институциональную систему в 1960–1990-е годы. На основе исторических источников анализируются педагогические подходы, образовательные программы, методические пособия, система подготовки педагогических кадров, расширение сети дошкольных учреждений, характерные для той эпохи. В статье на научной основе рассматривается влияние политики советского периода на становление дошкольного образования в Узбекистане, раскрываются факторы, заложившие основу развития этой системы в последующие периоды.

**O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING PAYDO
BO'LISHI: TARIXIY-ILMIY TAHLIL**

Sevara Aliqulovna Elmurodova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'zbekiston tarixi kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17863780>

ARTICLE INFO

Received: 02nd December 2025

Accepted: 08th December 2025

Online: 09th December 2025

KEYWORDS

Sovet davri, maktabgacha ta'lim, tarixiy tahlil, bolalar bog'chasi, Turkiston ASSR, O'zbekiston SSR, tarbiya siyosati, ilk maktabgacha muassasalar, urushdan keyingi tiklanish, pedagogik metodika, maktabgacha ta'lim dasturlari, institutsional tizim, tarbiyachi tayyorlash, 1930–1950 yillar, 1960–1990 yillar.

ABSTRACT

Ushbu ilmiy maqolada 1920–1990 yillarda O'zbekiston hududida maktabgacha ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari tarixiy-ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sovet hokimiyatining tarbiya siyosati, bolalar bog'chalarining ilk tashkil etilishi, 1930–1950 yillar davomidagi iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta'siri, urushdan keyingi tiklanish jarayonlari hamda 1960–1990 yillarda maktabgacha ta'limning institutsional tizimga aylanishi yoritiladi. Shuningdek, davrga xos pedagogik yondashuvlar, o'quv-tarbiyaviy dasturlar, metodik qo'llanmalar, tarbiyachi tayyorlash tizimi va maktabgacha muassasalar tarmog'ining kengayishi tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Maqola sovet davri siyosati O'zbekistonda maktabgacha ta'limning shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatganini ilmiy asosda yoritib, mazkur tizimning keyingi davrlarda rivojlanishiga zamin yaratgan omillarni ochib beradi.



1. Dolzarbligi:

Maktabgacha ta'lim har qanday jamiyat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, uning shakllanish tarixi xalq pedagogikasidan tortib zamonaviy davlat ta'lim siyosatiga qadar davom etuvchi murakkab jarayondir. O'zbekistonda bu tizimning rivojlanishi bir necha bosqichlarda amalga oshgan bo'lib, har bir bosqich o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy sharoitlar ta'sirida shakllangan.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi murakkab tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan bo'lib, uning rivoji an'anaviy oilaviy tarbiya ko'rinishlaridan boshlab, sovet mafkurasi asosidagi davlat bog'chalarigacha bo'lgan uzoq evolyutsion jarayonni o'z ichiga oladi. Turli davrlarda maktabgacha ta'limga bo'lgan yondashuvlar siyosiy tizim, iqtisodiy sharoit va madaniy qarashlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Mazkur maqolaning maqsadi – maktabgacha ta'lim tizimining paydo bo'lishi va shakllanish jarayonini tarixiy-ilmiy manbalar asosida tahlil qilish va asosiy bosqichlarni ilmiy jihatdan yoritib berishdir. Mavzu XX asr davomida bir necha yo'nalishlarda tadqiq qilingan. 1950–1980-yillarda sobiq ittifoq olimlari (A.Usova, V.Vasileva, N.Krupskaya va boshqalar) maktabgacha tarbiyaning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqqan. O'zbekiston bo'yicha esa A.Rasulov, T.Sodiqova, Sh.Fayziyevlarning izlanishlarida sovet davri bolalar bog'chalari, tarbiyaviy ishlar mazmuni o'rganilgan. 2000 yillardan boshlab milliy maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati tarixini qayta ko'rib chiqishga qaratilgan ilmiy izlanishlar ko'paydi. A.Rasulov va N.Xolmurodovanning "O'zbekistonda maktabgacha tarbiya tarixi" asari eng asosiy kompleks tadqiqotlardan biridir. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tarixiy-tahliliy metod – maktabgacha ta'lim evolyutsiyasini davrlar kesimida o'rganish.

Qiyosiy metod – an'anaviy tarbiya bilan sovet modeli o'rtasidagi farqlarni tahlil qilish.

Manbashunoslik metodi – arxiv materiallari, hukumat qarorlari, nizomlar, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish.

Kontent-tahlil – ilmiy adabiyotlar, o'quv dasturlari va matbuot materiallarini o'rganish.

Tizimli yondashuv – maktabgacha ta'limni ijtimoiy institut sifatida baholash.

3. Tadqiqot natijalari:

Qadimgi davrdagi maktabgacha ta'limning ildizlari haqida fikr bildirilganda, o'zbek xalq pedagogikasida bolani yoshligidan tarbiyalash g'oyasi juda qadimiy an'analarga ega ekanligini ko'rish mumkin. Zardushtiylikning "Avesto" kitobida bolaga halollik, poklik, mehnatsevarlik kabi sifatlarni singdirish zarurligi qayd etiladi[1].

O'rta asrlarda yashab, ijod etgan sharq mutafakkirlari ham bu borada qimmatli pedagogik qarashlar qoldirganlar. Masalan, Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" asarida 3–7 yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi, o'yin faoliyati va yoshga mos mashg'ulotlar haqida fikrlar bildiradi[2]. Ibn Sinoning: "*Bolaga bilim berishda uning tabiati va yoshiga mos bo'lgan usul qo'llanilmog'i lozim*"[2,114-bet], degan fikri modern maktabgacha pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig"da bolani yoshligidan odob-axloqqa o'rgatish jamiyat barqarorligining



asosiy omili ekanini ta'kidlaydi [3]. Bu manbalar O'zbekistonda maktabgacha ta'lim bo'lishi mumkin bo'lgan dastlabki pedagogik poydevor hisoblanadi.

XX asr boshlarida maktabgacha ta'lim g'oyalarining rivoji jadid ma'rifatchilari tomonidan ta'limning barcha bosqichlarini isloh qilishga qaratilgan harakatlar kuchaydi. Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi jadidlar bolani yoshligidan boshlab o'qitish zarurligini ta'kidlab, bu borada birinchi metodik qo'llanmalarni yaratganlar. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq" asarida: *"Tarbiyasiz xalqning yo'li qorong'u, fojiasi muqarrar"* [4, 52-b], deya bolani ilk yoshdan tarbiyalash jamiyat kelajagini belgilashini qayd etadi. Jadidlarning ayrim maktablarida "boshlang'ich tayyorlov sinflari" joriy qilingan bo'lib, ular bugungi maktabgacha ta'limning funksiyasiga yaqin bo'lgan [5].

1896 yilda Turkistonda vositalar kengashi kambag'allarning bolalari uchun "yasli"lar deb atalgan muassasalar tuzila boshladi. Yaslilarga endigina yura boshlagan bolalar qabul qilingan va maktab yoshiga yetguniga qadar tarbiyalangan, bolalar kun bo'yi yaslida bo'lib, uch mahal ovqatlantirilgan. Yasli ishlari nazoratchi ayol tomonidan boshqarilgan, xizmat qiluvchi xodimlar ham bo'lgan. Bu muassasada bolalarni duolar o'qishga, oddiy o'qish va yozishga, sanashga, to'qishga, to'r taqishga, tikishga va boshqa hunarlar o'rgatilgan. Butun o'lka bo'ylab shunday yaslilardagi bolalar soni 50-60 boladan oshmas edi. Turkistonda kambag'allarning bolalari uchun Toshkent, Samarqand, Sirdaryo, Namangan shaharlarida yetimxonalar tashkil etilgan.

Imtiyozli sinflarning bolalari uchun 1891 yilda "Bog'dorchilik" jamiyati tomonidan Toshkent istirohat bog'ida maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun "Bolalar maydonchasi" turidagi birinchi bolalar bog'chalari ochilgan. Bolalar bog'chasi uchun istirohat bog'i maydonidan sersoya joy ajratib berildi. Maydonchada arg'imchoq o'rnatildi va xilma-xil o'yinchoqlar tayyorlandi. Maydonchada gulzor katta o'rinni egallab, bolalar o'zlari o'simliklarni paravrish qilishardi.

1891-1903 yillar davomida mablag' yo'qligi sababli bog'cha bir necha marta yopilgan. Ta'lim-tarbiyaga oid ilg'or g'oyalarning ta'siri ostida Toshkentda 1903 yil fevral oyida "Oilaviy ta'lim-tarbiyaviy to'garagi" tashkil qilindi. To'garak Harbiy ministrlk va Xalq maorifi tomonidan tasdiqlangan ustav asosida ish boshladi. U o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'ygan edi:

1. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish usullarini rivojlantirish va takomillashtirishda yordam berish.

2. Pedagoglar bilan ota-onalarni va bolalar tarbiyasi ishini boshqaradigan kishilarni (oilalar, maktab va bolalar bog'chasining yagona tarbiyaviy ta'sir etishni belgilash maqsadida) bir-birlariga yaqinlashtirish shular jumlasidandir.

Bu to'garakda maktabgacha sho'ba ham faoliyat ko'rsatgan. Ta'lim-tarbiya to'garagi yuzaga kelgunga qadar bolalar bog'chasining tarbiyaviy ishida muayyan pedagogik tizim yo'q edi, shu sababli to'garak a'zolari bolalar tarbiyasi bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishardi.

Bolalar birinchi marta 4 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan ikki xil yosh guruhlariga bo'lingan. Mashg'ulotlar, o'yin va ko'ngil ochish dasturlari asosida olib borilgan. Harakatli o'yinlar, xo'r bo'lib aytiladigan ashula, o'qish, rasm chizish, loy va plastilindan narsalar



yasash, gimnastika mashqlarini reglamentga soladigan jadvallar tuzilgan. Ota-onalarning talabi bilan fransuz va nemis tillari o'rgatilgan, bu ishlarni mutaxassislar tomonidan tekin amalga oshirilgan.

Ta'lim-tarbiya to'garagi bolalar bog'chasida tarbiyaviy ish saviyasini oshirishga yordam berdi. Tarbiyaviy ish mazmuniga muayyan tizim, xilma-xil ish shakllari kiritildi. Lekin maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan tarbiyachilar bo'lmaganligi sababli ko'pincha bog'cha tarbiyaviy ishining mazmuni betartib amalga oshirilar edi.

1903-1914 yillar davri maktabgacha tarbiya sohasidagi ta'lim-tarbiya g'oyalarining jadal suratda o'sishi bilan xarakterlanadi. Sirdaryo, Samarqand, Toshkent shahrida bolalar bog'chalari kabi ayrim bog'chalar yuzaga keldi. 1909- 1910 yillarda va keyinchalik xususiy bog'chalar paydo bo'ldi: bu bog'chalarda 6 yoshdan boshlab bolalarni asosan gimnaziya o'qishga tayyorlanar edi. Bunday bolalar bog'chalari xususiy uylarda ochilar va tamomila ota-onalar ta'minotida bo'lgan. Ma'lumotga ega bo'lgan va chet tillarini biladigan o'qimishli xonimlar tarbiyachi edilar. Ammo mazkur bolalar bog'chalari faqat badavlat ota-onalarning ehtiyojini qondirgan edi. Davlat tomonidan ijtimoiy bolalar bog'chalari faqat 1917 yildan keyingina yalpi tarzda tashkil etildi. 1917 yil 20 noyabrda Xalq Komissarlari tomonidan "Maktabgacha tarbiya yuzasidan Deklaratsiya" e'lon qilinib, unda "Bolalarni ijtimoiy tekin tarbiyalash bolaning birinchi tug'ilgan kunidan boshlanadi" – deyilgan edi.

Maktabgacha tarbiya butun xalq maorifi tizimining birinchi bo'g'ini va tarkibiy qismi bo'lib qoldi. 1919 yilda qabul qilingan Davlat dasturlarida xalq maorifi sohasida ijtimoiy tarbiyani yaxshilash va xotin-qizlarni ozod qilish maqsadida maktabgacha ta'lim-tarbiya tarmoqlarini vujudga keltirish haqida fikr yuritildi. Davlatning bu umumiy siyosiy yo'li asosida Turkiston ASSR Maorifi Xalq Komissarligi oldida davlat maktabgacha ta'lim-tarbiya tarmoqlarini vujudga keltirish, metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash va boshqa mas'uliyatli vazifalar paydo bo'ldi.

O'zbekistonda maktabgacha tarbiya tashkilotlarining rivojlanish tarixini quyidagi holatda ko'rish mumkin:

- 1910-1920-yillar. Bog'chalarni himoyalash kengashi tuzildi.
- 1918-yilda Toshkentning eski shahar qismida o'zbek bolalari uchun 4-bolalar bog'chasi tashkil qilindi.
- 1926-yil maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 2000ga yaqin bolalar bo'lgan.

1917-yilgi oktyabr inqilobi natijasida bolsheviklarning yangi hokimiyati tomonidan xayriya faoliyatiga chek qo'yilgan va uning moddiy(shaxsiy mulk) va ma'naviy (din) manbalari yo'q qilingan. Bu vaqtda barcha joylarda, jumladan, O'zbekistonda ijtimoiy tarbiya bo'limlari tuzila boshlangan. Voyaga yetmaganlarni ijtimoiy huquqiy himoyasi bo'yicha muassasalar tuzilib, Moskva va Leningrad oliy o'quv yurtlarida ijtimoiy tarbiya tizimi uchun kadrlar tayyorlash boshlandi. XX asrning 20-yillarida maktabga moddiy yordam beruvchi "komsod" (yordam qo'mitasi) tashkilotlari faoliyat yuritgan. Bu davrga kelib Turkistonda davlat tomonidan ijtimoiy bolalar bog'chalari faqat 1917-yildan keyingina yalpi tarzda tashkil etila boshlandi. 1917-yil 20-noyabrda xalq komissarlari tomonidan "Maktabgacha tarbiya yuzasidan deklaratsiya" e'lon qilindi. Davlat bolalar bog'chalari 1918-yilning ikkinchi yarmida tashkil etila boshlandi. 1918-yil 20-oktyabrda



Turkiston maorifi xalq komissarligi qoshida maktabgacha tarbiya sohasida barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun maktabgacha tarbiya bo'limi tashkil etildi. 1919-yilda qabul qilingan davlat dasturlarida xalq maorifi sohasidagi islohotlar rivojlandi. Toshkent, Samarqand, Sirdaryo, Namanganda yetimxonalar tashkil etilgan.

Sovet davrida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim shakllanishi 1920-yillarda bolalar bog'chalarining sovet ma'muriy tuzilmasi orqali tashkil qilinishi bilan bog'liqdir. 1925-yilda Turkiston hududida ilk davlat yasli va bog'chalari faoliyat yurita boshlagani arxiv ma'lumotlarida qayd etilgan [6]. Misol uchun, 1927-yilga kelib Toshkent shahrida 7 ta davlat bolalar bog'chasi faoliyat ko'rsatgan [7]. Ikkinchi jahon urushidan so'ng davlat siyosatida ayollarni ishlab chiqarishga keng jalb etish zarurati paydo bo'ldi va maktabgacha muassasalar soni keskin oshirildi. 1960-yillarga kelib O'zSSRda 400 ga yaqin bog'cha faoliyat ko'rsatgan [8]. 1970-yillarga kelib, maktabgacha ta'lim bo'yicha yagona davlat dasturlari joriy etildi. Tarbiyachilarni tayyorlash bo'yicha texnikum va institutlar ochildi. 1980-yillarda bolalar bog'chalarida qamrov 50% ga yaqinlashdi [9]. Lekin tizim mafkuralashtirilgan bo'lib, milliy qadriyatlar cheklangan edi.

1918-1925-yillar V.Flubensovning "Boshlang'ich maktabda dars berish metodlari" (O'zbek tilida) nomli kitobi, 1928-yilda V.Flubensov va N.P.Arxxongelov tahriri ostida "Bilim" nomli o'zbek maktabi boshlang'ich sinflari uchun ilk xrestomatiya chop etildi. 1924-yilda O'zSSR tashkil topishi munosabati bilan maktab qoshida o'zbek bolalari uchun boshlang'ich maktablar tuzildi. Unda Inoyatov, Mansurov, Usmonov, Rustamov, Safarov kabi ajoyib o'qituvchilar dars berishgan.

1930-yilda O'zbekistonda respublikaning barcha katta shaharlari va viloyatlarida o'z bo'linmalariga ega bo'lgan maktabgacha tarbiya pedagogik maslahatxonasi tashkil qilindi. Uning faoliyati doimiy ma'ruzalar, radiosuhbatlar, ayollar uchun ko'rgazmalar tashkil qilishdan iborat edi. Ular uchun bolalarga eng yaxshi burchak qilish bo'yicha musobaqa ham o'tkazilgan. Pedagogik maslahatlar beruvchilar oilalarga borib, bolalar burchaklarini tashkil qilishgan bilan birga bolalarni bog'chalarga qabul qilish tartiboti hamda oilalarga tarbiya masalalari bo'yicha maslahatlar berishgan. 1933-1934-yillarda sanab o'tilgan harakatlar natijasida O'zbekistonda 3840 ta kolxoz maydonchalari bo'lib, unda 127 ming bolalar qatnashgan. 1933-yil bolalar bog'chalari uchun ilk dastur loyihalarini ishlab chiqarish yili sifatida muhrlandi. 1933-1934-yillarda O'zbekistonda 3840 ta kolxoz maydonchalari bo'lib, unda 127 ming bolalar bo'lgan. Shu bilan birga bu vaqtda onalar uchun "Bolalar xonalari" nomli maktabgacha tarbiya tashkilotlari ham tuzilgan. 1938-1939-yillarda respublikada 927 ta bolalar bog'chasi ochilgan edi va ularda 36710 ta bola bor edi. Maydonchalar soni esa 4835ta bo'lib ularda 152000 bola bor edi.

O'zbekiston SSR Maorif ministrligi tomonidan dastlab 1933-yilda me'yoriy dastur ham ishlab chiqilgan. Ammo, ushbu dastur bir talay kamchiliklarga ega edi. Qolaversa, undagi ayrim qoidalar zamonga qarab o'zgartirishni taqozo etardi. Shu bois 1964-yilda "Bolalar bog'chasida tarbiya programmasi" nashr etildi. Ushbu dastur 1972-yilgacha bolalar bog'chalarida asosiy dasturulamal bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston SSR Maorif ministrining 1972-yil 10-maydagi 302-son buyrug'i bilan yangi "Bolalar bog'chasida tarbiya programmasi" tasdiqlandi va shu yilning 1-sentabridan amaliyotga tadbiiq etildi.



Urush yillari O'zbekistonda 200 ming bola ko'chirib keltirilishi natijasida bolalar bog'chalari tarmog'ining kengayishi, ularda ish kuni uzaytirish zaruriyati paydo bo'lgan. Urush yillari maktabgacha internatlar ham tashkil qilingan. Ulardagi tarbiyaning o'ziga xosligi shundan iboratki, u yerda o'z oilasi, yaqinlaridan ajragan bolalar tarbiyalanishgan. Urushdan keyingi davrda oziq-ovqat muammolari munosabati bilan kuchsizlangan bolalar uchun sog'lomlashtirish chora-tadbirlari kuchaytirildi. Bu maqsadda respublikaning bir qator shaharlarida sanatoriya tipidagi bog'chalar tashkil qilindi. Ko'chirib keltirish natijasida olib kelingan bolalar va kattalarni joylashtirish va qabul qilish Respublika hayotining urush yillaridagi asosiy ijtimoiy hodisasi bo'ldi. 1941-yilda Toshkentda Zuyev va Pastki Qrim bolalar uyining tarbiyalanuvchilari joylashtirildi. Popda tumanning eng zo'r maktabi bolalar uyiga aylantirildi. Biroq, kerkli jihoz-krovat, matros, yostiq, yoping'ich, kiyim-kechak yo'q edi. Bularni esa mahalliy aholi ta'minlab berdi.

1941-yilning 16-oktabrda karantin bolalar uyi ochilib, unda bolalar ikki hafta mobaynida shifokorlar nazorati ostida bo'lishgan va faqat keyin statsionar bolalar uylariga jo'natilganlar. Bu yillarda patronat-ko'chirib keltirilgan bolalarni tarbiya qilishga olish keng tarqaldi. Misol uchun, Shomahmudovlar -insonparvarlikning yuksak namunasi ko'rsatgan oila. Temirchi Shomahmudovning ulkan oilasi haqidagi xabar uzoq-uzoqlarga, hatto frontgacha yetib brogan edi. Bu haqda eshitgan katta leytenant Levitskiy Shoahmad otaga bir necha yuz rubl yubordi-komandir oladigan maoshning katta qismi edi. Mazkur miqdor-toki tirik ekan, yana pul yuborib turishini va'da berdi.

Arxivlarda Toshkent Go'daklar uyining 1941-1942-yillardagi qaydnoma kitoblari saqlanib qolgan unda kengash nomiga tushgan bolalikka olish haqidagi arizalar uchraydi. 1942-yilda Toshkent shahrida voyaga yetmaganlarni qabul qilish va ularni bolalar uyiga joylashtirish markazi tashkil qilingan edi. Markazlar Toshkent, Farg'ona, Urganch, Namangan, Andijon, To'rtko'l shaharlarida tuziladi. Qishloq joylarida 2000 ta gacha bolalar uyi tarbiyalanuvchilarini qabul qilish uchun joylar tayyorlanadi.

1930-yillarga kelib, tizimda markazlashuvi va mafkuraviylashtirilish kuchaytirildi. Bu vaqtga kelib maktabgacha ta'limni yagona davlat tizimiga aylantirish maqsadida, maktabgacha ta'lim Narkompros (xalq maorifi xalq komissarligi) tasarrufiga o'tkazildi. Bu tizim yagona dasturlar, metodik qo'llanmalar va tarbiyachilar tayyorlash standartlariga asoslandi. 1939-yilga kelib O'zSSRda: 1 287 ta bolalar bog'chasi, 35 mingdan ortiq tarbiyalanuvchi mavjud edi. [4] Turkiston general-gubernatorligi arxiv materiallari, 1896-yil yig'ma jildi. Bog'chalarda tarbiya jarayoni kommunistik g'oyalarni singdirishga qaratildi: Lenin, Stalin portretlari, "Kommunistik mehnat", "ilk sotsialistik ong" kabi tushunchalar, 7-noyabr (Oktabr inqilobi), 1-may, 8-mart bayramlari tarbiyaviy ishlarda markazga qo'yildi. Tarbiya dasturlari markazlashtirilgan holda markaz – Moskva tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, mahalliy mentalitet va milliy qadriyatlar deyarli e'tibordan chetda qoldirilgan.

1950–1970-yillar maktabgacha ta'lim tizimida Kengayish va tizimlashtirish davri bo'ldi. Urushdan keyingi yillarda Sovet Ittifoqida tug'ilish ko'payishi natijasida maktabgacha ta'lim muassasalariga ehtiyoj keskin oshdi. 1950-yillardan boshlab yirik shaharlarda tipik loyihalar asosida yangi bog'chalar qurilishi boshlandi. 1960-yilda O'zbekistonda 3 460 ta bog'cha faoliyat yuritgan. Bog'chaga qamrov shaharlarda 45–50%,



qishloqlarda esa 10–12% atrofida bo'lgan. Tarbiyachilar tayyorlash tizimi uchun bu davrda Toshkent, Buxoro, Samarqand va Farg'onada pedagogika maktablari ochildi, keyinchalik Toshkent Davlat Pedagogika Instituti (TDPI)da maxsus "Maktabgacha pedagogika" kafedrası tashkil etildi.

Maktabgacha ta'limda sovet pedagogikasining asosiy namoyandalari sifatida: N.Krupskaya, A.Makarenko, L.Vigotskiy, A. Leontyev, D. Elkoninlarning g'oyalari bog'cha dasturlarining asosini tashkil qildi. 1970–1980-yillarda aksariyat bog'chalar: yirik zavod va kombinatlar, kolxoz va sovxozlar tasarrufida bo'ldi. Bu esa ularning moddiy bazasini mustahkam qilgan holda, ta'lim mazmunini ishlab chiqarish ehtiyojlariga bo'ysundirgan. 1980-yillarning oxiriga kelib, sovet tizimi tanazzulga yuz tutar ekan, bog'chalarda milliy o'yinlar, xalq og'zaki ijodi va mahalliy tarbiyaviy usullar deyarli yo'q bo'lib ketdi. Tarbiya mazmuni "sovet bolasi"ni yetishtirishga qaratilgan bo'lib qoldi. 1980-yillarda maktabgacha ta'lim O'zbekistonda tarixdagi eng keng qamrov darajasiga chiqdi. 1985-yilda bog'chalar soni 6 700 tadan oshdi. Qamrov shaharlarda 78%, qishloqlarda esa 35–40% ni tashkil qildi (O'zbekiston SSR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 1985.) Bu ko'rsatkich o'sha davr uchun MDHning ko'plab hududlaridan yuqori bo'lgan.

4. Xulosa:

XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda maktabgacha ta'lim hali rivojlangan tizim bo'lmagan bo'lsa-da, bu davr ilk tarbiya g'oyalari, tayyorlov sinflari, rus-tuzem maktablari, jadidchilik tarbiyasi va dastlabki bolalar bog'chalari orqali keyingi bosqichlarga asos yaratdi. Aynan shu davr maktabgacha ta'lim tarixining eng muhim o'tish davri hisoblanadi.

Bu tizimning yutuqlari – keng qamrov, pedagogik standartlashuv, inshootlar ko'pligi bo'lgan bo'lsa-da, kamchiliklari – ortiqcha mafkuraviylik, milliy tarbiya yo'qligi va "korxona-bog'cha" modelining zaifligi edi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining shakllanishi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, xalq pedagogikasidagi qadimiy tarbiya g'oyalaridan boshlab, jadidlar ma'rifatchiligi, sovet davridagi institutsional tizim va mustaqillik yillaridagi keng ko'lamli islohotlar orqali rivojlandi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan modernizatsiya maktabgacha ta'lim tizimini xalqaro standartlar darajasiga yaqinlashtirdi.

References:

1. Avesto. Tarjima va izohlar. – Toshkent: Fan, 2001.
2. Ibn Sino A.A. Tib qonunlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1990.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Cho'lpon nashriyoti, 1992.
5. Qosimov B. Jadidchilik harakati. – Toshkent: Universitet, 1999.
6. O'z Milliy Arxivi, 1925-yil ma'lumotlari.
7. Toshkent shahar arxivi, 1927-yil bolalar bog'chalari ro'yxati.
8. O'zbekiston SSR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 1965-y.
9. O'zSSR Xalq ta'limi vazirligi ma'lumotlari, 1988-y.
10. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 1997-yil.
11. Maktabgacha ta'lim bo'yicha statistika jamlanmasi. 2010-y.



12. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent: MTT vazirligi, 2018.
13. MTTV hisobotlari. 2021-yil.